

Tuproqqa'l'a massiviga ekilgan "Niyat" g'o'za navining birinchi nihollari unib chiqdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-13-mart kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomida berilgan topishiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 17-son majlis ijrosi bo'yicha Xorazm viloyatida yangi tashkil qilingan Tuproqqa'l'a tumanining Tuproqqa'l'a massivida 1200 gektarga Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari tomonidan yaratilgan "Niyat" g'o'za navi urug'larini ekish topshirilgan edi.

Ushbu topshiriqni ijrosi sifatida aprel oyi boshida Tuproqqa'l'a massiviga "Niyat" navi buguni kunga kelib 51 ta fermer xo'jaligiga 1000 ga maydonga ekildi. Dastlab ekilgan dalalarda birinchi nihollar unib chiqdi.

